



ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Allayorov T.R.

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.f.d., (PhD)

Tayanch so'zlar: maktab ta'limi, yangi pedagogik texnologiya, ta'limiy o'yinlar, ta'lim jarayonining sub'yekti, o'yin-topshiriqlar.

Ключевые слова: школьное образование, новые педагогические технологии, образовательные игры, субъект образовательного процесса, игровые задания.

Key words: school education, new pedagogical technology, educational games, the subject of the educational process, play assignments.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "...Aziz ustozlar, maktab ta'limi sohasidagi islohotlarimizni amalga oshirishda men sizlarni o'zinning eng yaqin yordamchim, deb bilaman. Maktab ta'limini yanada yaxshilash bo'yicha qabul qilayotgan chora-tadbirlarimizning pirovard natijasi avvalo sizlarga, sizlarning fidokorona mehnatingizga bog'liq.

Men sizlarning timsolingizda o'z hayotini dunyodagi eng ulug' va olijanob ishga – yangi avlod tarbiyasiga bag'ishlagan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlarni ko'raman. Bugun sizlar ta'lim-tarbiya berayotgan, qalbini, ongini ezgulik bilan to'ldirayotgan millionlab farzandlarimiz ertaga Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lib, bizning safimizga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz sizlarning bunday olijanob xizmatlaringizni hech qachon unutmaydi. O'qituvchilik kasbini e'zozlash, uning mehnatini qadrlash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchi maqomini mustahkamlab qo'ydik. Kelgusida shu asosda, albatta, ko'p ishlarni amalga oshiramiz".

Ma'lumki, pedagogikamiz uzoq yillar o'quvchiga ta'lim jarayonining tinglovchisi (ob'yekti) sifatida qarab keldi. Bunday munosabat ulardagi faollikni bo'g'ishga va o'z ijodiy imkoniyatlarini to'la namoyish eta olmaslikka olib keldi. Aslida o'quvchi ta'lim jarayonining sub'yektiga aylantirilsagina, u



egallayotgan bilimlarni aqliy faoliyatidan o'tkazadi, har bir til hodisasi haqida o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon qiladi.

Yangilangan ta'lim mazmunini joriy etishda o'qituvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Ta'lim mazmunini qancha yangilanmasin, yangi dastur, standartlar yaratilmasin, o'quv darsliklar nashr etilmasin – bularning hammasi etarli emas. Ularni ta'lim jarayoniga qay darajada joriy etish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish haqiqiy pedagogga bog'liq bo'ladi. Chunki maktabga mohir ustoz, o'qituvchi kirib kelsagina ular jonlanadi, ijodiy pedagogikaning mash'alasi yoqiladi, pedagogik nazariya va tizimlar, ko'rgazmali qo'llanmalar harakatga keladi.

Hozirgi kunda ana shunday o'qituvchilarning yangi avlodini tarbiya qilish muhim vazifalardan biriga aylangan. Sababi – izlanuvchan, bilimli, ijodkor, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan o'qituvchilarga ehtiyoj sezilmoqda.

Keyingi paytda pedagogik texnologiyaning turli usullari ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. Bulardan maqsad o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatishdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlanganlaridek, «Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur» .

Ona tili mashg'ulotlarida tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar o'quvchini ta'lim jarayonining sub'yektiga aylantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ta'limiy o'yinlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni zerikish va toliqishdan saqlash, o'yin orqali bilim olishini ta'minlashdir.

Ona tilidan o'quvchilarga beriladigan o'yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra 3 turga ajratish mumkin:

1. Qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar.
2. Qisman ijodiy faoliyat ko'rsatishga asoslangan o'yin-topshiriqlar.
3. Ijodiy o'yin-topshiriqlar.

Qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarini yaxshi sharoitda qo'llashni, yaratuvchilikni talab etmaydi. Bunday o'yin-topshiriqlarni bajarish o'quvchiga katta murakkablik ham tug'dirmaydi. Oldin o'rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchiga fonetika bo'limidan unli va undosh tovushlar o'rganilgach, muayyan bir tovush juftlari bilan farqlanuvchi (masalan, i-u, o-a, o'-u, i-e, v.h.) tovushdosh so'zlar hosil qilish yuzasidan musobaqa tashkil etilishi mumkin. O'quvchilar oldingi mashg'ulotda shu tovush juftlari asosida so'zlar hosil qilganligi tufayli bu o'yin-topshiriqni qiynalmay bajara oladilar.

Qisman ijodiy o‘yin-topshiriqlar o‘quvchidan ma’lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy faoliyat ko‘rsatishni talab etadi. Ta’limiy o‘yinning qisman ijodiy bo‘lishi o‘quvchilarning bilim saviyasiga bog‘liq. Agar o‘quvchi oldin egallangan bilimlarni yangi sharoitda, tom ma’nodan notanish sharoitda qo‘llashda o‘zida ishonch sezsa va uni bemalol uddalay olsa, topshiriqning qisman ijodiylikiga ehtiyoj qolmaydi. Topshiriqdagi shartni bajarish uchun o‘quvchi tashqaridan (masalan, sinfdoshlaridan, o‘qituvchisidan, darslik va o‘quv qo‘llanmasidan, lug‘atlardan, ma’lumotlardan v.h.) yordam olsa, o‘z-o‘zidan ravshanki, topshiriq qisman ijodiy bo‘lib qoladi. Buning uchun o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining o‘quv imkonini yaratganini puxta bilishi va topshiriq shartini bajarish uchun ularga qanaqa yordam zarurligini belgilay olishi kerak. Ijodiy o‘yin-topshiriqlar oldin egallagan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o‘quvchilardan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi.

Ta’limiy o‘yinlarning samaradorligi undagi topshiriq shartining to‘g‘ri belgilanishi bilan bog‘liq. O‘yin-topshiriqlarni tuzishda tushunarliklik va ilmiylik prinsiplarining uyg‘unligi, ularning tarbiyaviy, didaktik, psixologik va gigiyenik talablarga javob berishi, «til+me’yor+nutq mutanosibli» ga bo‘ysundirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan komp’yuter, masofali o‘qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi-talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinishda yoki shaklda tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va mahoratiga bog‘liq.

Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak .

Keyingi paytda pedagogik texnologiyaning turli usullari ta’lim tizimiga kirib kelmoqda. Bulardan maqsad o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatishdir.



Muhtaram Birihi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlanganlaridek, "Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur".

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi samarali natijalar beradi. Chunki o'qituvchi o'qitishning yangi usullarini amaliyotga joriy etishni o'rganadi, zamon talablariga mos usullarini amaliyotga joriy etishni o'rganadi, zamon talablariga mos ravishga intilish kuchayadi, bilim, malaka, ko'nikmalari takomillashadi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar orqali mashg'ulotlar tashkil etilsa, o'quvchilar ham mustaqil fikrlashga o'rganadi, faolligi ortib boradi, hayotda o'z o'rnini topishga intiladi, ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlash, qiyoslash va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish, o'qitishning noan'anaviy usullardan foydalanish ilg'or pedagogik texnologiya mazmunini tashkil etar ekan, bu muayyan vaqt talab etadigan jarayondir. Bu esa ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarning kasbiy mahorati, bilimi va o'z ishiga bo'lgan fidoyiligiga bog'liqdir.

So'z qudrati oshib borayotgan bugungi kunda insonni kamolot sari yetaklash, ularga ziyo nurini sochish, notiqlik san'ati, muomala madaniyatini o'rgatish pedagoglarning zimmasiga yuklanadi. Zero, o'qituvchi qadim-qadimdan ona yurtimizda ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vositasi bo'lib kelgan.

Har bir xalqning saviyasi, uning san'ati, madaniyati o'z ona tili va adabiyotiga bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Chunki adabiyot o'zida xalq tarixi, madaniyati, tili va kelajagini uyg'unlashtiradi. Shunday ekan, bu fan o'qituvchisi avvalo, o'zi yuksak didli, ortidan o'zgalarni ergashtira oladigan darajada yetuk va mahoratli bo'lishi kerak.

Har bir o'qituvchining, u qanday texnologiyani qo'llamasin, o'z o'quvchilari bilan o'ziga xos munosabati, pedagog muomalasi betakrordir. Ayniqsa, bu ona tili va adabiyot darslarida o'zgacha ma'no kasb etadi.

Ona tilidan ta'limiy o'yinlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyati, mustaqil ishlay olish darajasi, sinf o'quvchilarining o'quv imkoniyati, mahalliy o'lka materiallari ham hisobga olinadi.

Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish yuzasidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ona tili ta'limining mazmuni bilan bog'liq kamchiliklar.
2. O'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq kamchiliklar.

Birinchi guruhdagi kamchiliklarga ona tili darsliklarida tilga oid tushuncha, qoida va ta'riflarning me'yordan ortiqligi, ularda o'yin-topshiriqlardan foydalanilmaganligi kabilardir.



Ikkinchi guruhdagi kamchiliklar esa ona tili o'qituvchilarining faoliyatida ijodkorlik va tashabbuskorlikning yetishmasligi, ta'limiy o'yinlarni tashkil etish yuzasidan ilg'or o'qituvchilarning tajribalari yetarli o'rganilmaganligi, o'qituvchilarning o'z metodik mahoratlarini yetarli darajada oshirib bormayotganliklari kabilarni qamrab oladi.

Birinchi bosqichda ona tili mashg'ulotlarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish masalasi bilan bog'liq.

Bu o'rinda biz ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni ham tahlil qilishga harakat qildik. Bu o'rinda Platon, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, H.H.Niyoziylarning bolalarga bilim berish va turli yo'llar bilan ularning o'qishga qiziqishini kuchaytirish xususidagi g'oyalar berishganini kuzatdik.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-avgust kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqi.
2. И.Каримов “Ўзбекистон XXI асрга интиломда” “Ўзбекистон” нашриёти, 1999 йил.
3. В.То'хлиев, М.Шамсиева, Т.Зиёдова. О'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2010-yil.
4. М.Аһмедова. О'zbek tilini o'qitishda kompyuterdan foydalanish. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 2006-yil, 2-son, 73-75-betlar.
5. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o'quvchilarga ona tili darslarini o'tishda ta'limning samarali, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ta'limiy o'yinlarning mazmumi va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается содержание и значение развивающих игр в организации эффективного, на основе новых педагогических технологий обучения учащихся урокам родного языка.

SUMMARY

The article reflects on the content and importance of educational games in organizing students on the basis of effective, new pedagogical technologies of education when taking native language lessons.